

TOJIDDIN JANDIYNING QO‘LYOZMA MEROSI: SAQLANISHI, O‘RGANILISHI VA ISTIQBOLLARI

Axtamova Aziza

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20292566>

Annotatsiya: Maqolada o‘rta asrlarda yashab ijod etgan yirik tilshunos olim Tojiddin Ahmad ibn Mahmud Jandiy Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati va u qoldirgan boy filologik meros manbashunoslik nuqtayi nazaridan tizimli tadqiq etilgan. Olimning asarlari ilk bor uchta tarkibiy guruhga ajratib tahlil qilingan: zamonaviy arab sharqshunosligida o‘rganilib nashr etilgan asarlari, jahon fondlarida qo‘lyozma holida saqlanayotgan bitiklari hamda bizgacha yetib kelmagan lisoniy risolalari. Tadqiqot natijasida Jandiyning nafaqat arab tili morfologiyasi (sarf) va sintaksisi (nahv), balki islom huquqi (fiqh), meros ilmi hamda balog‘at sohalarida ham yirik asarlar yaratgan serqirra alloma ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Maqola Jandiy merosining lisoniy va mantiqiy-metodologik qimmatini ochib berish orqali, uni o‘zbek tilshunosligi va manbashunosligida chuqurroq o‘rganish uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: arab tilshunosligi, Tojiddin Ahmad Jandiy, morfologiya (sarf), sintaksis (nahv), fiqh, bibliografik tahlil, qo‘lyozma manbalar.

Jahon tilshunosligi tarixida arab tili grammatikasi, xususan, uning morfologiya (sarf) va sintaksis (nahv) tizimini izchil tadqiq etish hamda qonun-qoidalarini tizimlashtirishda Markaziy Osiyo zamonidan yetishib chiqqan ulamolarning xizmatlari beqiyosdir. O‘rta asrlar Sharq renessansi davrida yashab, nafaqat lisoniy ilmlar, balki islom huquqi va balog‘at sohasida ham o‘chmas iz qoldirgan ana shunday serqirra allomalardan biri — Tojiddin Ahmad ibn Mahmud Jandiy Buxoriydir. Bugungi kunda uning boy ilmiy merosi arab sharqshunosligida, xususan, Misr, Suriya, Iroq kabi davlatlarning yetakchi ilmiy markazlarida keng tadqiq etilayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligi va manbashunosligida allomaning hayoti hamda asarlari hali tizimli ravishda atroflicha o‘rganilmagan.

Ushbu maqolaning dolzarbligi Ismoil Posho Bag‘dodiy, Xayriddin Zarkaliy hamda Hoji Xalifa kabi mashhur ensiklopendist va bibliograf olimlarning asarlarida keltirilgan tarixiy manbalarga tayanib, Jandiy merosini ilk bor yaxlit holda manbashunoslik va bibliografik nuqtayi nazardan tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi — allomaning jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan, hozirgacha nashr etilgan hamda bizgacha yetib kelmagan asarlarini tasniflash orqali uning arab tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasini va ilmiy salohiyatini ochib berishdan iborat.

ASOSIY QISM

Jandiy Buxoriy o‘rta asrlarda yashab o‘tgan buyuk tilshunos olimlardan biri bo‘lib, uning ilmiy faoliyati asosan arab tilshunosligi, xususan, morfologiya (الصرف) va sintaksis (النحو) sohalariga bag‘ishlangan. Jandiy nazm va nasrda arab tiliga doir ko‘plab keng qamrovli kitoblarni tasnif qilgan. Olimning qoldirgan boy ilmiy merosi haqida tarixiy manbalarda ba‘zi ma‘lumotlar saqlanib qolgan.

Muallif asarlarining barchasi to‘liq tadqiq qilinmagan bo‘lib, bizgacha ba‘zilari qo‘lyozma holatida saqlangan, ba‘zilarining esa faqat nomlari yetib kelgan.

Bugungi kunda Jandiy ilmiy merosini o‘rganish arablar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda, jumladan, Misr, Suriya, Iroq kabi qator arab davlatlarida olimning boy ilmiy merosi ko‘plab tadqiqot ishlarida bosh mavzu qilib olinayotganini ko‘rish mumkin.

Olimning tadqiq qilingan asarlari quyidagilar:

“Ujjala fi tafsiri lafzi-l-jalola” (العجالة في تفسير لفظ الجلالة) - “Alloh” lafzi tafsiri haqida muxtasar risola). Bu kichik risola bo‘lib, unda Jandiy olimlarning “Alloh” lafzi ishtiyoqi (yasalishi) haqidagi turli qarashlarini bayon etgan. Asarda “Alloh” lafzining yasama yoki tub ekanligi, undagi “al” (ال) aniqlik artiklining turi va bu so‘zning o‘ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan. Risola “Alloh” so‘zidagi tushib qolgan “alif” (ا) harfining imlo qoidasi bilan yakunlanadi. Ushbu asar doktor Muhammad Dalij tomonidan tadqiq etilib, Damashqdagi “Arab tili akademiyasi” jurnalida nashr qilingan.

“Al-iqlid sharhu-l-Mufassal fi san’ati-l-e’rob li-z-Zamaxshariy” (الإقليد شرح المفصل في صنع الإعراب للزمخشري - Zamaxshariyning “E’roblash san’ati haqida batafsil” asariga “Kalit” nomli sharh). Bu asar alloma Jorulloh Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075-1144) qalamiga mansub nahv (sintaksis) ilmidagi mashhur “Al-mufassal” kitobiga yozilgan sharh hisoblanadi.

“Al-maqolid sharhu-l-Misbah lil-Mutarriziy fi-n-nahv” (المقاليد شرح المصباح للمطرزي في النحو - Mutarriziyning nahvga oid “Al-misbah” asariga “Kalitlar” nomli sharh). Ushbu asar nahvshunos Imom Nosiruddin ibn Abdussayyid al-Mutarriziyning (1144-1213) “al-Misbah” nomli matniga sharhdir. Kitob besh bobdan iborat bo‘lib, bugungi kunda arab tilini o‘rganuvchi talabalar orasida keng tarqalgan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Jandiyning mazkur sharh asari doktor Ahmad Abdulsayyid Shtiviy tomonidan “Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy va uning “Al-maqolid” asaridagi nahviy sa’y-harakatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi sifatida tadqiq etilgan va 2007-yilda Azhar universitetida himoya qilingan.

“Uqudu-l-javohir fi ilmi-s-sarf” (عقود الجواهر في علم الصرف - Sarf ilmidagi javohirlar shodasi). Bu turli sarfiy vaznlar va qofiyalarni o‘z ichiga olgan sarf ilmiga oid manzumdor. 15ta bobdan iborat. Hoji Xalifa ushbu asar haqida: “Uning (عقود الجواهر في علم الصرف) sarf ilmida ham she’riy, ham nasriy shakli mavjud”, deb ta’kidlagan.

“Sharh uqudu-l-javohir fi ilmi-s-sarf” (شرح عقود الجواهر في علم الصرف - “Sarf ilmidagi javohirlar shodasi” asariga sharh). Ushbu sharh Xolid Abdulfazzo va Asil Muhammad Kozim tomonidan tadqiq etilgan va Qodisiya universiteti “Gumanitar fanlar” jurnalida “Ahmad ibn Mahmud Jandiyning “Uqudu-l-javohir” asari” nomi ostida nashr qilingan. Shuningdek, mazkur asar Zakariya ibn Sulaymon ibn Xalifa at-Tamimiy tomonidan ham ilmiy o‘rganilgan. Ilmiy tadqiqot ishi Qosim universiteti “Arab tili va gumanitar fanlar” jurnalida chop etilgan.

“Rayhonatu-r-ruh fi ilmi-s-sarf” (ريحانة الروح في علم الصرف - Sarf ilmi ruhiyatining nafosati). Bu 133 baytdan iborat morfologik manzuma bo‘lib, Jandiy uni yetti bobga taqsimlagan. Mazkur kitob arab tilida ism va fe’llarning yasalishi, fe’lga qo‘shilib yoziluvchi olmoshlar kabi sarfga oid turli mavzularni qamrab olgan nodir manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar doktor Bayon Muhammad Fattoh Jabboviy tomonidan tadqiq etilgan va Suyutiyning mashhur “Sharhu-l-Kofiya” asari bilan birga 2021-yilda “Doru-l-zaxoir” nashriyotida chop etilgan.

“Sharh qolaidi-t-ta’rif fi ilmi-t-tasrif” (شرح قلائد التعريف في علم التصريف - “Sarf ilmidagi ta’riflar shodasi” asari sharhi). Bu Jandiyning “Al-qolaid” manzumasiga yozgan sharhi bo‘lib, mazkur ilmiy tadqiqot ishida asosiy manba sifatida olindi. Ushbu asarning qo‘lyozma nusxasi Iroq Respublikasi Anbar universitetida 2022-yil Umar Zohid Muhsin Hamadon Kabiysiy tomonidan tahqiq qilingan.

“Anvoru-l-masobih sharh Misbahu-l-Mutarriziy fi-n-nahv” (أنوار المصايح شرح مصباح - المطرزي في النحو - Mutarriziyning nahvga oid “Misbah” asariga “Chiroqlar nuri” nomli sharh). Mazkur manba ustida Anbar universiteti Filologiya fakulteti magistranti Shahd Yosir Zokir ad-Damuk tomonidan tadqiqot ishi amalga oshirilgan va 2020-yilda himoya qilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Jandiy Buxoriyning ilmiy merosi hali to’liq o’rganilmagan. Olimning bir nechta asarlari hozirgi kunga qadar qo’lyozma holatida arab mamlakatlarining boy, ilmiy fond kutubxonalarida saqlanib kelmoqda.

Tadqiq qilinmagan qo’lyozma asarlari:

“Sharh Rayhonati-r-ruh fi ilm-s-sarf” (شرح ریحانة الروح في علم الصرف. الشرح الصغير) – “Sarf ilmi ruhiyatining nafosati” asari sharhi. Kichik sharh). Bu muallifning o’z manzumasi “Rayhonatu-r-ruh”ga yozgan qisqacha sharhidir.

“Sharh Rayhonati-r-ruh fi ilmi-s-sarf” (شرح ریحانة الروح في علم الصرف. الشرح الكبير) – “Sarf ilmi ruhiyatining nafosati” asari sharhi. Katta sharh). Jandiy o’zining “Anvoru-l-masobih” asarida ushbu sharhga bir necha bor ishora qilib o’tgan.

“Al-qolaid fi ilm-t-tasrif” (القلائد في علم التصريف) - Sarf ilmidagi marjonlar). Bu turli vazn va qofiyalarda bitilgan she’riy manzuma bo’lib, muallif uni 25 ta bobga taqsimlagan.

“Al-qaroiz fi fanni-l-faroiz” (القرايئ في فن الفرائض) - Meros huquqi haqidagi manzuma). Bu meros huquqi ilmi haqidagi manzuma bo’lib, Jandiy uni hijriy 666-yilda, ya’ni “Al-qolaid” asarini bitirganidan bir yil o’tib nazmga solgan.

“Nazmu-l-jome’i-s-sag’ir” (نظم الجامع الصغير) - Kichik to’plam manzumasi). Jandiy ushbu asarni “Sharhu-l-Qolaid”da eslatib o’tgan.

“Javome’u-l-faqri sharhi Nazmi jome’i-s-sag’ir” (جوامع الفقر شرح نظم الجامع الصغير) – “Kichik to’plam manzumasi” asari sharhi). Bu asar mashhur olim Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy al-Hanafiy (748-804)ning “Al-jome’u-s-sag’ir” asariga yozilgan sharhdir. Bu asar 1533 ta fiqhiy masalani o’z ichiga olgan bo’lib, islom olamidagi fiqh ilmiga oid nodir manbalardan biri hisoblanadi. Asar ko’plab ulamolar tomonidan dastlab nazmda she’riy bayonlar yozilgan, keyinchalik sharhlangan. Jandiy ham uni avval nazmga solib, so’ngra sharhlagan olimlar sirasiga kiradi.

Olimning yozgan, sharhlagan asarlari orqali uning nafaqat sarf, balki fiqh va meros huquqi bo’yicha ham yetuk olim bo’lganini ko’rish mumkin. Bundan anglashiladiki, muallif arab tili morfologiyasidagi qoidalarni izohlashda qo’llagan mantiqiy uslubini islom ilmlarini tushuntirishda ham mohirona qo’llay olgan.

“Sharhu-n-Najdiyyat” (شرح النجديات) – “Najdiyya” qasidasi sharhi). Bu ming baytdan iborat bo’lgan manzuma bo’lib, Abivardiy (1068-1113) qalamiga mansub “Qosoidu-l-iroqiyyat” (قصائد العراقيات - Iroq qasidaları) dan keyin yozilgan. Bu haqida Hoji Xalifa o’z tabaqot kitobida ma’lumot keltirib o’tgan. Asarning qo’lyozma nusxasi Hindistondagi Ropur kutubxonasida 234-raqam ostida saqlanmoqda.

“Nafoisu-l-kalom va aroisu-l-aqlam” (نفائس الكلام وعرائس الأعلام) – Nafis so’zlar va nozik qalamlar). Bu asar Jandiyning balog’at ilmiga oid kitobi bo’lib, bu haqida Ali Rizo Qarah Bulut (1940-2012) o’zining qomusiy tarix kitobida ta’kidlab o’tgan.

Jandiyning bizgacha yetib kelmagan 2ta yirik asari ham mavjud. Ular quyidagilar:

“Sharhu-l-Kofiya fi-n-nahv” (شرح الكافية في النحو) – Nahv ilmiga oid “Al-kofiya” asari sharhi). Ibn Hojib nomi bilan mashhur Shayx Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar qalamiga mansub mashhur “al-Kofiya” asariga yozilgan sharhdir. Hoji Xalifa “Al-kofiya” asariga yozilgan sharhlar haqida so’z borganda Jandiyning ushbu sharhini ham aytib o’tgan.

“Munyatu-l-mutaallimin” (منية المتعلمين – Ilm oluvchilar orzusi). Ushbu kitob haqida “Uqudu-l-javohir” asarining tadqiqotchisi Zakariyyo Tamimiy ma’lumot berib o’tgan. Jandiy mazkur “Munyatu-l-mutaallimin” asari ham sarf (morfologiya) ilmiga oid yozilgan kitoblardan biri hisoblanadi.

Yuqorida sanab o’tilganlar olimning yorqin ilmiy merosi namunalari bo’lib, bundan ma’lum bo’ladiki, muallif o’z hayoti davomida salmoqli ijod qilgan, turli sohalarga oid nodir va muxtasar asarlar yozib qoldirishga ulgurgan. Quvonarlisi, bugungi kunda Jandiy asarlarini ilmiy o’rganish arab va arab bo’lmagan tadqiqotchilar orasida keng tarqalmoqda, olimning hayoti va ijodi haqida ko’plab tadqiqot ishlari yaratilmoqda.

XULOSA

qilib aytganda, Jandiy nafaqat arab tili morfologiyasi (sarf) va sintaksisi (nahv) bo’yicha yetuk mutaxassis, balki hanafiy mazhabining yirik vakili sifatida islom huquqi (fiqh), meros ilmi (faroiz) va noto’g’ri talqinlarga barham beruvchi balog’at ilmining ham yetuk bilimdoni bo’lgan. Uning grammatik qoidalarni tushuntirishda qo’llagan mantiqiy uslubi islomiy ilmlar talqinida ham mohirona namoyon bo’lgan.

Ahmad Jandiy Buxoriy merosini tadqiq etish Markaziy Osiyo mintaqasining arab tilshunosligi taraqqiyotidagi o’rni va nufuzini qayta baholashda muhim ahamiyatga ega. Allomaning hanuzgacha o’rganilmagan qo’lyozma asarlarini, xususan, uning o’zbek tilshunosligidagi o’rnini fundamental tadqiqot ob’ektiga aylantirish va ularni ilmiy muomalaga kiritish manbashunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

References:

1. – استانبول. الجزء الأول. هداية العارفين أسماء المؤلفين و آثار المصنفين. إسماعيل باشا البغدادي: 1951. المكتبة الإسلامية
2. ذو القعدة. الجزء الثاني. مجلة اللغة العربية: دمشق. العجالة في تفسير الجلالة. محمد أحمد الدالي، 1997.
3. مركز دراسة المخطوطات الإسلامية لوندون كشف الظنون، المصطفى عبد، 2021. 1776. الله القسطنطيني
4. – استانبول. الجزء الأول. هداية العارفين أسماء المؤلفين و آثار المصنفين. إسماعيل باشا البغدادي: 1951. المكتبة الإسلامية
5. (ه) وجهوده النحوية 700: تاج الدين أحمد بن محمود بن عمر الجندي (ت. عبد الملك أحمد السيد شتيوي القاهرة: جامعة الأزهر: - مع تحقيق شرحه على المصباح المسمى بالمقاليد. منظمة المؤتمر الإسلامي: - بيروت. الجزء الأول. سلم الوصول في طبقات الفحول. حاجي خليفة، 2011. مصطفى بن عبد الله.
7. – العراق). هـ 700: عقود الجواهر أحمد بن محمود الخجندي (ت. أصل: 2011. محمد كاظم، خالد عبد فزاع - العدد الأول، المجلد الرابع عشر، مجلة جامعة القادسية للعلوم الإنسانية
8. أحمد بن محمود بن عمر الجندي (ت: عقود الجواهر تأليف زكريا بن سليمان بن خليفة التميمي، : 2015 العدد الثاني، المجلد ال 222، مجلة العلوم العربية والإنسانية جامعة القصيم: - العراق). هـ 700 يناير
9. دار الذخائر: - القاهرة. تحقيق ربحانة الروح في علم الصرف. بيان محمد فتاح الجاوي. - 2021.
10. شرح القائد التعريف في علم التصريف لشرف الدين أحمد بن. عمر زاهد محسين حمدان الكبيسي 2022. - العراق). هـ - دراسة و تحقيق 669 - محمود بن عمر الجندي (ت رقم. دار الكتب المصرية. نسخة خطية.) شرح ربحانة الروح في علم الصرف (الشرح الصغير سفر 61.

12. . 2023. جامعة تكريت كلية الآداب: – العراق. أنوار المصاييح. شرف الدين الجندي،
13. الجنابي العالء الكالبازي. الشواهد السمعية في كتاب حل القرائض في فن الفرائض لشرف الدين دي. – العراق: جامعة الأنبار، كلية الآداب، 2022
14. عمر زاهد محسين حمدان الكبيسي. شرح القائلد التعريف في علم التصريف لشرفد الدين أحمد بن . – العراق، 2022(669هـ) – دراسة و تحقيق – محمود بن عمر الجندي(ت
15. 1022 جوامع الفقر شرح نظم الجامع الصغير. نسخة خطية. – تركيا: مكتبة أحمد الثالث، رقم.